



Faxriddin Qozixon Rohmatullohi Alayh

Mirzamiddinov Asliddin

Toshkent islom instituti o'qituvchisi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
2-bosqich magistranti

ABSTRACT

Ushbu maqolada Faxriddin Qozixon va u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy muhit haqida bayon etiladi..

ARTICLE INFO

Received: 11th January 2022

Revised: 10th February
2022

Accepted: 27th March 2022

KEYWORDS

Faxriddin Qozixon, alloma,
imom, faqih, mujtahid,
fahmi kuchli olim, shariat
sultoni, tariqat burhoni

Faxriddin Qozixon rohmatallohi alayh hazratlarining to'liq ismlari Alloma Faxriddin Abul Mahosin Hasan ibn Mansur ibn Abul Qosim Mahmud ibn Abdulaziz O'zgandiy Farg'oniylidir. Tug'ilgan yerlari Farg'onaning O'zgan shahridir. Qaysi sanada tug'ilganliklari to'g'risida ma'lumotlar yo'q. U kishi o'z zamonasida yetuk alloma, imom, faqih, mujtahid, fahmi kuchli olim, shariat sultoni, tariqat burhoni bo'lganlar.

U kishi hayotlik chog'larida Farg'ona, Buxoro kabi shaharlarda ilm o'rganib, ta'lim olib, ilm o'rgatib, din xizmatida bo'lgan zotdir. U kishi dastlabki ilmlarini o'z ona shaharlarida olganlar. So'ngra bobolarining shogirdi Zahiriddin Hasan ibn Ali ibn Abdulaziz Marg'inoniydan ta'lim oladi. Bundan tashqari bu yerda yana bir qancha ustozlardan ta'lim oladi. Farg'onada ancha ta'lim olganlaridan keyin o'z davrida ilm o'chog'i bo'lgan shahar Buxoroga ilm yo'lida safar qiladi. U yerda boshqa ustozlardan ta'lim oladi. So'ng o'sha yerda hayotlarining oxirigacha kitoblar tasnif qilib, shogirdlarga ta'lim berib o'tadilar.

Faxriddin Qozixon (rohmatallohi alayh) hazratlari hijriy 592-yil (milodiy 1196-yil) Ramazon oyining 15-sanasi dushanba kechasida vafot etganlar. Yettita qozilarning yoniga dafn qilinganlar¹.

Qozixonning chop etilgan to'rt jildlik "Al-Fatavo" va boshqa kitoblari bor². U kishini yuqorida yetti qozi yoniga dafn qilingan deyildi. Yetti qozining mozori esa Buxorodaligi ma'lumdur. Shu sababli u kishining qabrlarini topib, ziyorat qilish maqsadida Buxoro shahriga safar qildik. U yerga borib, Qozixonning qabrlarini so'rab-surishtirgan edik, barcha u kishining qabrlarini bir mahallaning ichida "Chor minor" minorasi hamda "Xo'ja Qurbon" madrasasi yaqinida, "Mehtar Ambar" ko'chasida ekanligini aytishdi³. Biz

¹ Aljavohirul muziyya fiy tobaqotil hanafiyya. 2-juz. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy Hanafiy. – Hajar; 1993. – 94-bet.

² Siyaru a'lamin nubalo. Imom Shamsiddin Zahabiy. // Mashhur daholar siyrati. Azizxo'ja Inoyatov tarjimasi. – Toshkent: Hilol-Nashr; 2017. – 428-bet.

³ 1-ilovaga qarang.

aytilgan manzilga borgan edik, u yerda boshqa zot – Imom Qozixonning maqbaralari bor ekan⁴. Biz qidirayotgan Faxriddin Qozixonning maqbaralari emas ekan. Lekin xalq orasida Qozixonning qabri deyilsa, shu kishining qabrlari ma'lum va mashhur ekan. Hamda mana shu hazrat Imom Qozixonning bu maqbaralari davlat muhofazasida ekan. Faxriddin Qozixonning qabrlari esa xalq orasida mashhur emas ekan.

“Aljavohirul muziyya fiy tobaqotil hanafiyya” kitobidagi u kishining qabrlari yetti qozining oldida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotga asoslanib⁵, Buxoroning Chor Bakr majmuasiga bordik⁶. Chor Bakr ziyoratgohi Buxoro shahridan 6 km g'arbda joylashgan bo'ib, bu hududning qadimiy nomi Sumitandir. To'rtta buyuk avliyo – hazrat Abu Bakr Sa'd Yamaniy (vaf. 970), hazrat Abu Bakr Homid (vaf. 937), hazrat Abu Bakr Muhammad ibn Fazl (vaf. 991), hazrat Abu Bakr Tarxon (vaf. 945) sharofatlaridan bu mavze Chor Bakr, ya'ni to'rtta Bakr deb atalgan.

Chor Bakr majmuasi xonaqoh, madrasa hamda masjiddan iboratdir. Mana shu uchta binoning ro'parasida kichkinagina minora ham bordir. Shuningdek, Chor Bakr majmuasida Jo'yboriy xojalarning mangu xilxonalari, dahma va xaziralari mavjud⁷.

Imom Faxriddin Qozixon XI-XII asrlarda yashab o'tdilar. U kishi yashagan shaharlar bu asrlarda bir necha hukmdorlar qo'l ostida bo'lgan. XI asr boshlarida Farg'ona vodiysi Somoniylar davlati hududiga kirgan. Lekin o'sha paytda Qoraxoniylar davlati Movarounnahr hamda Xurosonni egallash maqsadida edi. Movarounnahrni qo'lga kiritganidan so'ng, Somoniylar davlati barham topdi.

Qoraxoniylar endi Xurosonni ham o'z davlatiga qo'shib olish uchun harakat qiladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida shiddatli urushlar boshlanadi. 1006-1008-yillarda qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar. Lekin Mahmud G'aznaviy qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi.

Bu davrda saljuqiylar g'aznaviylarga xavf sola boshlaydi. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Bundan foydalangan qoraxoniylarning mahalliy hukmdori «bug'roxon» unvonini olgan.

Ibrohim Bo'ritegin 1038-yilda Amudaryo bo'yi viloyatlari – Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay, u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti Bolosog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar, ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan Movarounnahrdagi Qoraxoniylar davlati edi.

Qoraxoniylar hukmdorlari garchi bu davrda hali o'troq hayotga ko'chmagan bo'lsalar ham, dehqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglar edilar. Ular Bolasog'un, Qoshg'ar, Tarozi, O'zgan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarni davlat yoki viloyat poytaxtiga aylantirib, shaharlar bilan aloqa bog'lashga harakat qiladilar⁸.

Bu davlatga o'rtada g'aznaviylar ham, saljuqiylar ham, qoraxitoylar ham hujum qilishadi. Oxiri Xorazmshohlar davlati qo'lga ham o'tadi. Xullas, Movarounnahr hamda Xuroson XI-XII asrlarda bir necha hukmdorlar – somoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar, qoraxitoylar, xorazmshohlar kabi hukmdorlar o'rtasida talash bo'ladi.

Lekin shunga qaramay XI–XII asrlarda shaharlar kengayadi, aholi soni ko'payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid,

⁴ 2-ilovaga qarang.

⁵ 3-ilovaga qarang.

⁶ 4-ilovaga qarang.

⁷ 5-ilovaga qarang.

⁸ O'zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan ikkinchi nashr / Muall. A. Muhammadjonov. — Toshkent: Sharq, 2013. — 63-64-bet.

madrasa, minora va hammom kabi ko'plab mahobatli imoratlar qad ko'taradi. XI–XII asrning sirli koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o'zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi.

Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilinadi. O'sha vaqtlarda Bolosog'un, Tarozi, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo'lgan⁹.

Bu davrlarda me'morchilik hamda san'at ham ancha rivojlangandir. Bu davrlarda o'lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, gumbaz va karvonsaroylar qurila boshlandi.

Bu davr O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht, bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinchdan quriladigan uy-joylar va umumahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallardi.

X asrlarda binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. Shu bilan birga, bu bino to'rt fasadli. Uning to'rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo'q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o'sha davr uchun xos bo'lgan me'moriy xususiyatlardan ham ko'p foydalanilgan.

IX-X asr me'morchiligi uslublari saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida arablargacha bo'lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomi ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib bezatilgan g'ishtlar, o'yma ganchlar tilla suv bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini namoyon qiladi.

Narshaxiyni yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga ko'p mablag' sarflagan. Bu saroy g'oyat go'zal bo'lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marvda, Samarqand kabi shaharlarda ham bo'lgan. Bu saroylar kattaligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Ko'p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog'larda bunyod etilgan. Saroylarning go'zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ko'rish mumkin. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog' ichida 10 gektarga yaqin maydonni tashkil etgan. Saroy o'zining mahobatlili, serhashamligi va bag'oyat go'zal, nafis bezaklari bilan odamni o'ziga jalb qiladi.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molik.

Qoraxoniylar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlar taraqqiy etdi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Shahar aholisi ham ko'payib

⁹ O'zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan ikkinchi nashr / Muall. A. Muhammadjonov. — Toshkent: Sharq, 2013. — 66-bet.

bordi. Somoniylar davridayoq, yirik shaharlar bo'lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismdan — ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan-yangi hashamatli imoratlar paydo bo'lib, bu binolar tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniylar hukmdori Shame ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi. Hazara qishlog'i yaqinida Dingaron masjidi, uning yonida Raboti Malik nomi bilan mashhur bo'lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoniylar Arslonxon tomonidan mashhur imorat — Minorai Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo'rg'onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109-yillarda barpo etgan minorani, shuningdek, Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Termiz shahri XI-XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz hukmdorlari saroyi, ayniqsa, mashhur. Bu saroyi qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko'plab karvonsaroylarni, Buronqal'a, Naifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Bu davrda bir necha suv inshootlari qurilgan, unda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan bandler, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. Bu inshootlar fan va ishlab chiqarish g'oyatda rivojlanganidan dalolat beradi. 1,5 mln. m³ suvni to'plash imkoniga ega Xonbandi suv omborining qurilishi fikrimizning dalilidir. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizantal bosim kuchlarini hisoblash lozim bo'lgan. Suv inshootlari tog'da qurilganligi uchun yerning tez-tez qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo'l bilan hisoblab chiqish lozim bo'lgan, bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

IX-XII asrlarda madaniy hayotning yana bir tarkibiy qismi — musiqa san'ati ham rivojlandi. Albatta, markazlashgan yirik davlatlarda iqtisod, xalqlarning turmush tarzi yaxshilana borgan sari ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at bilan birga musiqa ham rivojlana boshlaydi. Har yerdagidek bu yerda ham bayramlar, to'ylar, xalq sayillari musiqa va qo'shiqlarsiz o'tmagan. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovor. Bu davrda: ud, tanbur, qubuz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay kabi g'oyat torli, zarbli va puflab chalinadigan xilma-xil cholg'u asboblardan keng foydalanilgan. Bu davrda hatto yangi sozlar ixtiro etilgan. Masalan, Rudakiyning zamondoshi Abu Hifz Sug'diy nayga monand shohrud nomli torli asbob yaratgan.

Bu davrda she'riyat g'oyatda taraqqiy etganligini qayd qilgan edik. She'riyat musiqa bilan, o'z navbatida, musiqa musiqashunoslik fani bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. O'sha davrning buyuk allomalaridan Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor berib, nodir asarlar yaratdilar.

Biz ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni, IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida yuz bergan chuqur ijobiy o'zgarishlar, ilm-fan, madaniyat rivojlanishini o'rganar ekanmiz, ularning yaratilishida buyuk hissalarini qo'shgan ulug' allomalar, olim-u fuzalolarning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo'shgan ulushlarini alohida ta'kidlaymiz. Jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimiz merosi yosh avlodni milliy g'oya, milliy mafkura, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynadi.¹⁰

IX–XIII asr ma'naviy hayotda Islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan Islom dini xalq hayotida muhim o'rin egallaydi. Movarounnahr aholisi Islom dinini qabul qilib, shariat ahkomlarini bajarishga, arab tili va yozuvini o'rganishga kirishdi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi.

XII asrda esa Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni karim, hadisi sharif va arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlarini har

¹⁰ O'zbekiston tarixi. Mualliflar guruhi. — Toshkent: Akademiya; 2010. 161-bet.

tomonlama chuqur o'rgatishda «Tafsir»– Qur'oni karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (Islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ul-islom» – «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topadi.

Faxriddin Qozixon (rohmatullohi alayh) hazratlari ham mana shunday fayzli davr hamda shaharlarda yashab, ijod qilib o'tganlar. U kishining ham mana shu shaharlarning o'sha paytdagi hamda hozirgi kundagi dovrug'iga qo'shgan hissalar alohida o'rin tutadi.